



KUYDIRGI KASALLIGIGA TASHXIS QO'YISH USULLARI

¹Mengliyev Ali Saykonovich

Termez agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti (v.f.f.d)

²O'rolov Odilbek Oybek o'g'li

³Daliyev Dilshodbek Anvar o'g'li

⁴Xolto'raev Anvar

⁵Nurmatov Sardor

⁶Xasanov Elshod

Termez agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti

2-bosqich talabalari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7475960>

ARTICLE INFO

Received: 13th December 2022

Accepted: 21th December 2022

Online: 23th December 2022

KEY WORDS

Epizootiya, infektsiya, patogen, infeksiyon jarayon, infeksiyon kasallik, mutualizm, immunoreaktivlik, oqsil, rezervuar, zoonoz, zooantroponoz, antroponoz, moyil organizm, infektsiya xillari, alimentar infektsiya, ekzogen infektsiya, chang infektsiya, endogen infektsiya, virulentlik, transmissiv yo'l, gorizontaal yo'l, vertikal yo'l, antigen, geterogen antigenlar, epitop, antitelo, immunitet omillari.

Kuydirgi (lot. - Febris carbunculosa; ingl.- Anthrax; ruscha - sibirskaya yazva) o'tkir kechuvchi o'ta xavfli infeksiyon kasallik bo'lib, septitsemiya, og'ir zaharlanish va karbunkulalar hosil qilish bilan kechadi, barcha turdagi qishloq xo'jalik, uy, yovvoyi hayvonlar kasallanadi hamda u odamlarga asosan hayvonlar orqali osongina yuqadi.

Epizootologik, klinik ko'rsatmalar, bakteriologik tekshirishlar natijasiga asoslanib qo'yiladi.

Jasadni ko'rgandagi ma'lumotlar, shishish, jasadning qotmasligi, tabiiy

ABSTRACT

Kuydirgi kasalligining kasallik septik kechishi, Bakteriologik diagnoz qo'yish, Mikroskopiya, Bac. anthracis ning Sof kulturasini oziq muhitida ajratish, Serologik tekshirish usullari, allergik usul va tekshirish muddatlar.

teshiklardan qon aralash ajratmalar chiqib turishi kuydirgiga shubha qilishga asos bo'ladi.

Laboratoriya tekshirishlari diagnozni tasdiqlaydi.

Kuydirgi kasalligini pasterellyoz, qorason, yomon sifatli shish, bradzot, enterotoksemiya va piroplazmi dozlardan epizootologik, klinik va laboratoriya tekshirishlari natijasida differensiasiya qilish kerak.

Laboratoriyaga hayvonning yotgan tomonidagi qulog'i (tubidan orasi 1 sm ikki tomonidan bog'lab kesiladi va shu joyi



kuydiriladi), quloqdan olingan qon yoki qalin surtmalar, o'lgan cho'chqalardan - tamoq limfa tugunlari va shishgan biriktiruvchi to'qima qismchalari yuboriladi.

Kasallik septik kechganda molning o'ligini yorayotganda kuydirgiga gumon qilinsa, yorish to'xtatiladi va taloqning bir qismi yuboriladi. Agar quloq qonsizlantirilgan bo'lsa PR qo'yiladi.

Pat material aynigan bo'lib, bakteriologik tekshirishga yaramasa, faqatgina presipitasiya reaksiyasini qo'yish bilan chegaralanadi.

Infeksiya manbasini topish uchun - patmaterial sifatida tuproq, suv, yem-xashak, teri-mo'yna xom ashyolari, jun va boshqa namunalar olinadi.

Quloq dezinfeksiyalovchi eritma bilan namlangan dokaga yoki pergament qog'ozga o'rab shisha idishga va mustahkam yashikka solinadi.

Material maxsus idishlarga joylanib, konteynerda germetik yopilgan, muhrlangan holda yo'llanadi. Patmaterialni laboratoriyaga yo'llanma bilan mutaxassis olib keladi

Bakteriologik diagnoz qo'yish: Mikroskopiya

Patmaterialdan tayyorlangan surtmalar maxsus spirt - pergidrolli eritmada 30 daqiqa fiksatsiyalanadi

Gram va kapsulalarga - Rebigier , Mixin , Olt, Gimza usullaridan biri bilan bo'yaladi.

Bac.anthraxis grammusbat tayoqchalar, qisqa zanjir yoki juft-juft bo'lib joylashadi, tayoqchalarning bir-biriga qaragan taraflari , tekis kesilgandek, ochiq qolgan tarafi salgina oysimon qayrilgan bo'ladi.

Ko'pincha cho'chqalardan olingan patmateriallardan tayyorlangan

surtmalarda mikrobinning shakli o'zgarishi mumkin: tayoqchalar qisqa, semiz, egilgan yoki donachali bo'lib, o'rtasi yoki ikki cheti shishgan bo'ladi.

Yangi patmaterialdan tayyorlangan surtmalarda kuydirgi tayoqchalari kapsula bilan o'ralgan bo'ladi. Eskirganida esa mikroblar bir necha marta kattalashgan, morfologik ko'rinishi buzilib, kapsulalari to'liq emas, yulingan holda bo'ladi va juda yomon, past bo'ya ladi.

Mikroskopik tekshirishlarning taxminiy natijasi haqida darhol javob ekspertizasi berilib, unda boshqa tekshirishlar davom etayotganligi ta'kidlanadi.

Bac. anthracis ning Sof kulturasi oziq muhitida ajratish

Patmaterialdan go'sht peptonli bulon (GPB) va go'sht peptonli agar (GPA) larga ekib termostatda 36 - 37°C da o'stiriladi. Ekmalar 18 - 24 soatdan keyin ko'riladi, mikroblar kulturasini o'samagan bo'lsa yana ikki sutka termostatda o'stiriladi.

GPA da silliq, sal xira, kulrang kengish va oraliq koloniyalar hosil bo'ladi. Koloniyalar markazida qorong'ilashgan chetlari buyra - buyra, xuddi jingalak sochdek bo'ladi, «meduza kallasi» yoki «sher yoli» deb ham aytiladi.

GPB da bir sutkadan keyin suyuqlik tiniq-shaffof holda qolib, tubida yumshoq paxtasimon cho'kma hosil bo'ladi. Probirkani silkitganda bulon loyqalanmaydi, cho'kma esa mayda bo'lakchalarga bo'linadi.

Ba'zan GPB da kultura diffuz holda o'sib (yengil loyqalanish), silkitganda muar to'lqinlari paydo bo'ladi.

Gram usulida bo'yalgan, GPB kulturasi tayyorlangan surtmada kuydirgi tayoqchalari **uzun zanjirlar shaklida**, diffuz o'sganlarida tayoqchalar



bo'lak - bo'lak yoki ikkitadan, ba'zan qisqa zanjirlar shaklida joylashgan bo'ladi.

Serologik tekshirish usullari

Presipitasiya reaksiyasi (Askoli)

Yangi material termostatda 18-20 soat turishi kerak.

Eski material termostatga qo'ymasdan ekstraksiya qilinadi.

Ekstraksiya ikki usulda bajariladi: issiq va sovuq.

Shuni e'tiborga olish kerakki issiq usulda olingan ekstrakt, sovuq usulda olinganiga ko'ra presipitogenlari kam bo'ladi.

Issiqusul: patmaterial maydalanib (1-2 g) probirkaga solinadi, unga 1:10 nisbatda fiziologik eritma quyib 30-40 daqiqa suv hammomida qaynatiladi.

Sovuq usul: maydalangan (1-2 gr) patmaterial forfor hovonchada yaxshilab eziladi va kolbaga solib, tarkibida 0,3% li karbol kislota bo'lgan fiziologik eritma 1:10 nisbatda quyiladi, 16-18 soat uy haroratida turadi.

Tayyor ekstraktlarni, asbestli paxtadan o'tkazib, birinchi tomchilari olib tashlanadi va tiniq bo'lgunicha filtirlanadi. Reaksiya zardobning ustiga ekstraktni quyish yoki zardobni ekstrakt tagiga quyish usullari bilan bajariladi.

Musbat natijada: **1-2** uzog'i bilan **15 daqiqadan** keyin komponentlar chegarasida tutunsimon halqa paydo bo'ladi.

Allergik usul

A.Petrov va Ye.Kisilyov (1937) antraksin allergenini yaratib, hayvonlarda kuydirgi kasalligini allergik diagnostikasini ishlab chiqishgan. E.N.Shlyaxov (1957), uni takomillashtirgan. Antraksin kasal hayvonlarning hammasini aniqlab bermaydi, shu sababli uni boshqa kompleks usullar bilan birga qo'llash mumkin. Veterinariya amaliyotida keng qo'llanilmaydi.

Yakuniy diagnoz qo'yiladi:

- patmaterialdan kuydirgi kasalligi qo'zg'atuvchisi ajratilsa, zararlangan hayvonlarning hech bo'lmasa bittasi o'lib, undan kultura ajratilsa.
- patmaterial ekilgan oziq muhitlarda kultura o'sib chiqmasa, lekin shu material bilan biosinov qo'yilgan hayvonlarning hatto bittasi o'lib, uning organlaridan qo'zg'atuvchi kulturasi ajratilsa.
- lyuminissent mikroskopiya musbat natija bersa va patmaterialdan tayyorlangan surtmalarda kapsulali basillalar topilsa.
- aynigan (eski) materialdan, PR natijasi ijobiy bo'lganda.

Tekshirish muddatlari:

- 1.mikroskopik tekshirish -material keltirilgan kuni
- 2.bakteriologik tekshirish -3 kungacha
- 3.biologik-10 kungacha.

References:

1. Salimov X.S., Qambarov A.A. "Epizootologiya" darslik, 2016 y.
2. Parmanov M.P. va boshq., "Epizootologiya" darslik. T, 2010.
3. Parmanov M.P., "Epizootologiya" o'quv qo'llanma. T, 2002.
4. Parmanov M.P. va boshq., "Epizootologiya" o'quv qo'llanma. T, 2007.
5. Mamatova M.N. va boshq., "Xususiy epizootologiya" o'quv qo'llanma. T, 2006.
6. Matt J. Keeling & Pejman Rohani. "Modeling Infectious Diseases in Humans and Animals", USA, 2007.
7. www. Ziyo.net.uz.



8. www.veterinariya.medsinasi.uz
9. www.sea@mail.net21.ru
10. www.veterinary@actavis.ru
11. <http://www//infect/ru>